

Alisher Jabborov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası
mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: alisherjabborov05@gmail.com*

**HOFIZLIK SAN'ATI – IJTIMOIIY-MADANIY FENOMEN SIFATIDA
(O'ZBEKISTON XALQ HOFIZI
BEKNAZAR DO'STMURODOV MISOLIDA)**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston xalq hofizi, professor, ustoz-san'atkor, sohir ovoz sohibi Beknazar Do'stmurodovning hayoti va ijodiy faoliyatiga bag'ishlanadi. Bunda Ustoz san'atkorning musiqa san'atiga kirib kelishidan boshlab toki hofizlik san'atida erishgan o'ziga xos ijro uslubi xususida ilmiy muhohasa qilinadi. Shuningdek, uning bolalikdagi xotiralari, "Ustoz-shogird" an'anasidagi hayotiy kechinmalari hofiz san'atkor tilidan yozib olingan suhbatlarga tayanib uning faoliyati haqidagi jonli ma'lumotlar tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** maqom, hofiz, ashula, ovoz, madaniyat, san'at, Ustoz.*

**THE ART OF HOFIZLIK AS A SOCIO-CULTURAL PHENOMENON
(ON THE EXAMPLE OF THE PEOPLE'S HAFIZ OF UZBEKISTAN,
BEKNAZAR DO'STMURODOV)**

***Abstract.** This article is dedicated to the life and work of the People's Singer of Uzbekistan, Professor, master artist, owner of the magical voice Beknazar Dustmurodov. In it, a scientific discussion is held about the master artist's unique performance style, beginning with his entry into musical art and concluding with the art of hafiz. Also, based on his childhood memories, life experiences in the "Master-Apprentice" tradition, conversations recorded from the artist's face, living information about his activities is analyzed.*

***Keyword:** maqom, hofiz, song, voice, culture, art, mentor.*

Mumtoz musiqa ijrochiligi xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan musiqiy tafakkuri va estetik didining badiiy ifodasidir. Ushbu san'at turi

jamiyatning ma'naviy hayoti, ijtimoiy qarashlari hamda madaniy xotirasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu qarash madaniyatshunoslik hamda san'atshunoslikda milliy mumtoz musiqa merosimizni chuqurroq anglashda muhim ilmiy manba sifatida o'rganilishni talab etadi. Maqomlarimiz, milliy musiqa namunalarimiz – nafaqat mumtoz musiqiy meros, balki an'ana, ijro uslubi va ramziy ma'nolar tizimini o'zida mujassam etgan murakkab madaniy hodisadir. Shu sababli maqom ijrochiligini madaniyatshunoslik doirasida tahlil qilish milliy madaniyatning rivojlanish qonuniyatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Hofizlik san'ati – bu inson qalbining ovozi, uning dardi, quvonchi va orzularini ifoda etuvchi beqiyos ne'matdir. U xalqning ruhiy olamini, asrlar davomida shakllangan an'ana va qadriyatlarini avloddan-avlodga “Ustoz-shogird” merosxo'rligida yetkazadi. Ayniqsa, milliy musiqa san'ati xalqning o'zligini namoyon etib, qalblarni birlashtiruvchi kuchga ega. Ana shunday yuksak san'at yo'lida fidokorona xizmat qilgan ijodkorlarga xalq e'tirofiga sazovor bo'lib, yuraklarda mangu yashaydi. Shunday ekan bunday iste'dod egalarini nafaqat ardoqlash, balki ilmiy-tadqiqot ishlarida ularning ijodiy maktablarini ilmiy tahlil qilish zaruriyati tug'iladi. Shu ma'noda, milliy musiqamizga o'zining beqiyos hissasini qo'shib kelayotgan ustoz san'atkor, O'zbekiston xalq hofizi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori Beknazar Do'stmurodov timsolida ko'rib chiqamiz.

Beknazar Do'stmurodov 1957-yil 15-iyunda Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanida oddiy dehqon oilasida tug'ilgan. Otasi Do'stmurod buva oddiy bir traktorchi bo'lgan. Ustoz Beknazar Do'stmurodov o'tmish xotiralarini shunday eslaydi: “Yoshligimda katta bir terakzor bo'lardi, shu terakzor ichiga kirib olib ashulalar aytardim, mening yoshlik yillarim asosan o'sha yerlarda o'tgan. Padaribuzrukvorim o'sha terakzorda oddiy qorovul bo'lib ishlardi. Bu yerda besh mingdan ortiq terak daraxtlari parvarishlanar edi. O'sha yerga ertalab borib mol boqardik, molni bog'lab qo'yib maktabga borib kelib, yana o't o'rib, mollarimiz uchun xashak yig'ib, terakzorda yurardim. Otam dehqon edi, do'mbirani yaxshi

chalardi, dutorlarni shunday zo'r chalardilarki, men hali hech qaysi baxshi ijrosida bunday mungli, yoqimli ijroni his qilmadim. Otam do'mbirani yaxshi chalar va do'mbiraga kerak bo'lgan ichak torlarini ham o'zlari yasardi. Bunda har bir jonliq so'yganimizda qo'yning ichaklarni olib qo'yib, uni ivitib, tozalab, ohaklab ishlov berardilar. Men pichoqni o'tkirlaydigan qora qayroq bilan tortib ushlab turardim, keyin esa tayyor bo'lgan qo'y ichaklarini eshib dutor va do'mbira sozlari uchun torlar yasardilar. O'sha paytlar shu narsalarni o'rganib olmaganimga afsuslanaman. Otamning hunarlari ko'p, qo'llari gul betakror odam edilar rahmatli" [1].

Yoshligidan ashula aytishga ixlosi baland bo'lgan yosh Beknazardagi iste'dodni anglagan akasi, ham uning birinchi ustози Alimurod aka unga ilk ashula aytish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadi. Chunki akasida hofizlik san'ati bo'yicha uquvi bo'lib, uning ovoz diapazoni katta, ovoz tembri juda kuchli bo'lgan.

Yosh Beknazar yoz mavsumlarida xalqning quvonchli kunlari, turli to'y-marosimlaridagi tadbirlarda Alimurod akasiga hamrohlik qilar, bunda amaliy ijrochilik ko'nikmasini shakllantirib borardi. Uning juda katta zavq va shavq bilan dastlab ijro etgan asarlari O'zbekiston xalq artisti, ustoz-san'atkor Olmaxon Hayitovanning "Kel g'aribim" hamda "Ul lolasan" ashulalari bo'lgan.

Qishloq muhitida Xorazm ijrochilik maktabi vakillarining tez-tez tashrif buyurishi yosh ijrochining musiqiy didi va yo'nalishini belgilashda muhim omil bo'lgan. U Ma'murjon Uzoqov ijrochilik uslubini akasining o'rtog'i Mahat aka orqali o'zlashtirgan. Repertuar asosan xorazmcha ashulalardan iborat bo'lib, bunda Komiljon Otaniyozov ijodi alohida o'rin tutgan.

Yosh Beknazarning mohir ijrochi sifatida shakllanishida akasi Alimurodning moddiy-ma'naviy hamda ijodiy ko'magi muhim ahamiyat kasb etgan edi. Beknazar tuman hamda viloyat miqyosidagi ko'rik-tanlovlarda muntazam qatnashib, yuqori natijalarga erishgan. San'atga kuchli qiziqish sababli maktab ta'lim jarayonida uzilishlar ham kuzatilgan. Akasi tufayli ko'p katta san'atkorlarning davralarida

bo'lgan yosh san'atkor, tuman, viloyat ko'rik tanlovlarida oliy o'rinlarga munosib ko'riladi.

Har bir ishda bir hikmat, deganlaridek, Beknazar Do'stmurodov 1974-yilda o'rta maktabni tugatib, Toshkent irrigatsiya institutiga hujjat topshiradi, biroq talabalikka qabul qilinmaydi. Ushbu vaziyat uning keyingi hayotini o'zgartirishga, shu ma'noda-ki, uning san'at yo'lini tanlashiga sabab bo'lgan.

1975-yilda Toshkent davlat teatr va rassomlik instituti (hozirgi O'zDSMI) "Musiqali teatr aktyorligi" yo'nalishiga qabul qilinadi. Institutning ijodiy imtihonlarida Qashqadaryo mahalliy qo'shiqchiligida o'z o'rniga ega san'atkor Maxat Jumayevdan o'rgangan "Do'stlar salomat bo'lsa bas" qo'shig'i hamda imtihon talablariga muvofiq sahnaviy harakat shartlarni to'liq ijro etadi.

Institutdagi talabalik davridan Baxtiyor Ixtiyorovning ma'naviy qo'llab-quvvatlovi yosh hofizga yetuk hofiz bo'lib shakllanishida, shuningdek ilk sahna taftidan tortib katta sahnalarda o'zini namoyon etishiga turtki bo'ldi. Keyinchalik Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida Beknazar Do'stmurodovning aktyor-qo'shiqchilik faoliyati uning "professional darajada" namoyon bo'lishiga xizmat qildi. Bu davrni hofizning ijodiy kamolotga yetish davri bosqichi desak, hech mubolag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda, Beknazarning musiqali teatr aktyorligidan ko'ra, ko'proq maqom ijrosiga, mumtoz ohanglariga bo'lgan ichki intilishi uni kelajakda yuksak hofiz bo'lib shakllanishiga yetakladi.

Beknazar Do'stmurodovning ovoz imkoniyati va xususiyatlari katta bo'lib, unda lirik tenor, uch oktavadan ortiq keng diapazonga ega. Hofizdagi ovoz tarovati va mungi maqom ijrochiligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu omil sabab, maqom sho'balarining pardaviy tuzilishi uning tenor ovoz imkoniyatlariga mos tushishi ayni muddao.

Beknazar O'zbekiston radiosi qoshidagi "Maqomchilar" ansamblidagi faoliyati jarayonida Orifxon Hotamov bilan uchrashuv uning ijodiy yo'nalishida keskin burilish yasaydi. Shoir Qadam Saidmurod tavsiyasi bilan ustoz Orifxon Hotamov huzuriga boradi, ustoz Orifxon Hatamov Beknazarning ovozini eshitib

ko'radi va Ustozga ma'qul bo'ladi. Lutfiy g'azali bilan maqom yo'lida bastalangan "Jafo qilursan" asarini o'rganishdan boshlab maqom ijrochiligi sirlarini muntazam ravishda egallaydi. Radioning rahbariyati tomonidan maqom ansambliga qabul qilinishi uning professional maqomchi hofiz sifatida shakllanishiga turtki bo'ladi.

Ansamblidagi faoliyati davomida Orifxon Hotamov, Eson Lutfullayev, Ochilxon Otaxonov, Kommuna Ismoilova, Isoq Kattayev kabi yetuk ustozlar bilan birgalikda faoliyat olib boradi. Qisqa muddat ichida murakkab sho'balarni ijro etish darajasiga erishadi. Xususan, "Saraxbori Navo" sho'basidagi yuqori pardalarni ishonch bilan topshirilishiga zamin yaratdi.

Beknazar Do'stmurodov aslida yoshligidan maqom xonandasi bo'lish orzusida yurar edi. Unga tabiatan ato etilgan ovoz turi lirik tenor bo'lib, keng ko'lamli uch oktavani tashkil etadi. Bunday ovozlar noyob hisoblanib, aynan maqom ijrochiligiga xosdir. Chunki maqomlarning ko'lamli keng, ba'zi sho'balari ikki oktava va undan ortiq bo'lib, tenor ovozlari ashula boshlaydigan pardadan ijro etilsa maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, maqomlarning pardalari asosan tenor ovozlarning ijrosiga ko'proq mos tushadi [2, 35-b].

Maqom ansamblidagi faoliyati davomida badiiy rahbar Abduhoshim Ismoilov yosh ijrochiga shunday shart qo'yadi. Ya'ni, Shashmaqomning Navo maqomidan bo'lmish "Saraxbori Navo" asarini ijro etasan deydi. Ishga kirganiga endigina 1 oy bo'lgan yosh hofizni bu mas'uliyatli topshiriq qo'rqitib yuboradi. 10 kun muddat ichida bu topshiriqni bajarishini, agarda bajara olmasa ishdan ketishini aytadi. Kecha-yu kunduz plastinkalar eshitib, asar ustida puxta tayyorlangan yosh hofiz topshiriqni muvaffaqiyatli bajaradi Shundan keyin unga eng yuqori avj pardalarni aytish unga ishonib topshiriladi.

Ustoz Orifxon Hatamov har bir ashulani oylar davomida mukammal o'rgatar, yosh hofiz esa bundan juda mamnun bo'lardi. Jumladan, Ustoz Orifxon Hatamov Beknazarov Do'stmurodovga Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijodidagi "Guluzorim" ashulasini 6 oy davomida o'rgatadi. Natijada yosh hofizda juda chiroyli, o'ziga xos "Guluzorim" ohangi yangraydi.

Ustozlari haqida hofiz g'ururlanib eslaydi: “Tavakkal Qodirov bilan uchrashuvim hayotimdagi unutilmas lahzalardan biri bo'lgan. Bir kuni ertalab ishga ketayotsam radioning oldida Tavakkal Qodirov turibdilar. Men o'zinga-o'zim “hozir borib salom bersam salomimga alik olarmikanlar” deb cho'chidim. Borib, Assalomu alaykum ustoz, desam “Vo alaykum assalom yaxshimisan bolam, men seni kutib turgan edim” dedilar. Men ajablandim, quchoqlab peshonamdan o'pib “Guluzorim”ni aytganing uchun Toshkentga oshga kelgandim, senga bir duo beray deb oldinga keldim dedilar. Men hazillashayotgan bo'lsalar kerak deb o'yladim. Orifxon akani etagidan mahkam tut, dedilar. Ishxonaga kirib chiqib qarashim bilan yo'q, ketib qolibdilar”.

Hofiz Beknazar Do'stmurodov, “ustozlar e'tirofi men uchun oliy maqomdir”, deb har bir ustozini yuksak ehtirom bilan yodlaydi. Jumladan, “televizorda ustoz Kamoliddin Rahimov yosh hofizlar haqida gapirib, Beknazar Do'stmurodov “Guluzorim”ni juda chiroyli aytgan”, deganlarida judayam xursand bo'lganman, chunki bu men uchun katta e'tirof edi”.

20 yil davomida Mahbuba Hasanova, Matluba Dadaboyeva, Soyibjon Niyozov, Abdunabi Ibrohimov, Xurshid Hasanov, Sharofiddin Ismoilov va boshqa ko'plab hofizlar bilan birgalikda ishlab, bir qator maqom va maqom yo'lidagi ashulalarni hamnafaslikda ijro etdi. Ammo O'lmas Saidjonov bilan ijro etilishi rejalashtirilgan “Buxoro irog'i”ni ijro etish hofiz uchun armonga aylanadi. Sababi, ustoz O'lmas Saidjonov bu yorug' dunyoni erta tark etadi.

Maqom yo'nalishida O'zbekiston teleradiokomitetining “Oltin fondi”ga yozib olingan barcha ijrolar – bu o'zbek xalqining nomoddiy musiqiy merosi hisoblanadi. Hofiz Beknazar Do'stmurodovning ustoz Fattohxon Mamadaliyevdan o'rgangan “Yovvoyi Chorgoh” ashulasi ham bevosita “oltin fond”ga yozilib, xalqimizning bebaho merosiga aylanib ulgurdi. Shuni ta'kidlash kerak-ki, katta ashulaning barcha sir-asrorlarini hofiz aynan ustoz Fattohxon Mamadaliyevdan o'rganganligini e'tirof etadi.

Shuningdek, Beknazar Do'stmurodovning O'zbekiston radiosi oltin fondiga yozdirgan maqom, maqom yo'lidagi ashulalar hamda bastakorlik ijodi namunalaridan Rahmadjon Tursunov bastalagan "G'amzasin" ashulasi, "Saraxbori Segoh", "Saraxbori Navo", "Saraxbori Oromijon" (Fuzuliy so'zi), "Oromijon" (Ogahiy so'zi), "Qaro bo'libtur" (Navoiy g'azali), Dugoh maqomidan "Orazi Dugoh", "Yolg'iz I -II" (Mashrab g'azali), "Chorgoh" (Sakkokiy g'azali), "Chapandozi Gulyor" (Ogahiy g'azali), "Talqinchayi Savti Ushshoq" (Atoiy g'azali), "Guluzorim" (Navoiy g'azali), "Sanamo" (Mashrab g'azali), "Ey quyosh" (S.Abdulla so'zi) kabi mumtoz asarlar shular jumlasidandir.

Beknazar Do'stmurodov shu kungacha bo'lgan faoliyati davomida maqom ansambli bilan, ko'plab xorijiy mamlakatlarda ijodiy safarlarda bo'ldi. Jumladan, Hindiston, Fransiya, Amerika qo'shma shtatlari, Misr, Xitoy (Shanxay), Germaniya, Rossiya kabi rivojlangan mamlakatlarning bir qator shaharlarida o'zbek milliy mumtoz musiqa san'atini katta sahnalardan turib targ'ib va tashviq etdi, o'zbek milliy qo'shiqchilikda o'z ovozi butun dunyoga tarannum etdi.

Ustozning qilgan mehnati Davlatimiz rahbari tomonidan munosib taqdirlanib, 2001-yilda unga "O'zbekiston xalq hofizi" unvoni berildi. Buni Beknazar Do'stmurodov quyidagicha xotirlaydi: "Bir chopon olib, ustozim Orifxon Hatamovning oldilariga bordim. Ustoz, "Arziysan, sen bunga loyiqsan, hofiz" deb, duo qilganlarini" mehr va quvonch to'la faxr bilan eslaydi.

Hofiz Beknazar Do'stmurodovning ustoz-pedagoglik faoliyati, uning ilmiy-ijodiy hamda o'quv-metodik faoliyati – O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining qarori bilan 2017-yilda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Dotsent"i, 2020-yilda "Professor" ilmiy unvoni topshiriladi.

Uning konsert ijrochilik faoliyatidagi yorqin chiqishlari Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yilda "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlanadi.

Uning hofizlik san'atiga oid qarashlarida, "Hofizlik – pokiza kasb. Ustozim Orifxon aka aytganlaridek, hofiz qat'iyatli, mukammal bilimga ega, niyati pok

bo'lishi kerak. Ashulani qog'ozga qarab emas, yoddan, ma'nosini his qilib ijro etish zarur", deydi Hofiz Beknazar Do'stmurodov.

Bugun kunga kelib, milliy maqom san'atiga katta e'tibor berilmoqda, viloyatlarda maqom ansambllari ochildi, yetuk hofizlar xotirasi e'zozlanmoqda. Endi eng muhim vazifa – yosh avlodga mumtoz musiqa merosimiz durdonalarini, shuningdek, hofizlik san'ati mohiyatini asl holida yetkazish, ustoz Beknazar Do'stmurodovning asl maqsadi. Shu jumladan, yoshlarga – tarixni, ustozlar ma'naviy merosini, mumtoz adabiyotni o'rgatishimiz kerak.

U o'zining oddiy qishloq oilasida tug'ilganligi, ota-onasi, bobo-buvilari san'atga yaqin insonlar bo'lganligini bod-bod eslaydi. U o'zidagi tarbiya, madaniyat, ustozlar duosi va Allohning inoyati bilan bugungi darajaga yetganligiga shukronalar keltiradi.

O'zbekiston xalq hofizi Beknazar Do'stmurodov hozirda 6 farzandning mehribon otasi, 12 nevaraning sevimli bobosi, ko'plab shogirdlarning qadrli ustози, shu bilan bir qatorda O'zbek xalqining sevimli hofizidir. Ustoz Beknazar Do'stmurodov hozirda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "Milliy qo'shiqchilik" kafedrasida shogirdlarga milliy mumtoz musiqa merosimiz namunalarini sir – asrorlarini o'rgatib, zabardast hofiz – hofizalar yetishtirmoqda.

Xulosa qiladigan bo'lsak, hofizlik san'ati oldidagi dolzarb vazifa – bu milliy mumtoz musiqa merosimizni asl holida kelajak avlodga yetkazishdir. Shunday ekan, hofizlik san'atiga rag'bat bildirayotgan har bir yigit-qiz – musiqa san'atini, xonandalikni, xususan hofizlik san'ati mukammal egallashlarida, ularni – ilimli, savodli, ma'naviyatli, yuksak farosatli qilib tarbiyalash, yoshlarning ma'naviy qiyofasini oshirishda mumtoz musiqa san'atimizning ijtimoiy-madaniy hayotda o'ziga xos o'rin tutishini anglab yetishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov S. *Hofizlik san'ati*. – Toshkent: Musiqa, 2007. – 135 b.

-
2. Do'stmurodov B. *Yakkaxon qo'shiqchilik*. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
– 180 b.
 3. Saidov B. *Bu men uchun sharaf* // *Teatr jurnali*. – Toshkent, 2020. – №3.
– B. 34-35.
 4. Xolboyev N. *Yakkaxon qo'shiqchilik (An'anaviy xonandalik)*. – Toshkent:
Musiqqa, 2018. – 270 b.